



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

BAG'RIKENGLIK-MILLATLARARO VA DINLARARO MUNOSABATLARDA INSON HUQUQLARIGA RIOYA ETISHNING HUQUQIY TAMOYILI

Subhiddinov Sayfiddin Qahramon o'g'li

Hidirova Sevara Fozil qizi

Nag'matova Mashxura Lutfulla qizi

Raxmonqulova Durdona Zokirjon qizi

O'zbekiston milliy universiteti

Jizzax filiali Oila psixologiyasi yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

subhiddinovsayfiddin@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, diniy erkinlik, inson huquqlari va uning qadr-qimmatini qonun oldida huquqiy himoya qilish borasidagi davlat siyosati bayon etiladi. Inson qadri har qanday sharoitda ham doimo ustun turishi, qonunda belgilangan tizim bo'yicha himoya qilinishi ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik, dinlararo munosabatlar, inson huquqlari, xalq birligi, xalq diplomatiyasi, urf-odat, baynalmilal, konsepsiya, ma'rifat, madaniyat;

Abstract: This scientific article describes the reforms implemented in our country, religious tolerance, international harmony, religious freedom, human rights and the legal protection of human dignity before the law. will be protected according to;

Key words: Religious tolerance, inter-ethnic harmony, inter-religious relations, human rights, national unity, national diplomacy, customs, international, concept, enlightenment, culture,

Kirish.

Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, o'lkamizda madaniyat rivojining uch ming yildan ortiq buyuk tarixi bor. Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning hozirgi hududida qadim davrlardan turli madaniyat, til, urf-odat, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qilgan xalqlar yashab kelgan. O'zbekistonning jug'rofiy-siyosiy nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani diniy va madaniy hayotga katta ta'sir ko'rsatgan. O'z navbatida bu yerda yashagan tub aholining madaniyati ham ularga ta'sir o'tkazgan va o'ziga xos turmush tarzini shakllantirishda muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Asrlar mobaynida o'lkamizning shaharu qishloqlarida masjid, cherkov va sinagogalar emin-erkin faoliyat ko'rsatib, turli millat va dinga mansub qavmlar hamjihatlikda o'z diniy marosimlarini ado etib kelganlar. Tariximizning eng murakkab, og'ir davrlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojarolar bo'lmagan. Bu esa, millati va diniy qarashidan qat'iy nazar, insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular o'lka aholisining qon-qoniga singib ketganidan dalolat beradi. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

ASOSIY QISM

Mustaqillik yillarida ko'p millatli mamlakatda fuqarolar o'rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanganligi O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lida qo'lga kiritilgan katta yutuqlardan biridir. Chunki 120 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydigan mamlakatda jamiyatni tubdan yangilash, bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tkazish osonlik bilan ko'chmaydi. Bunday paytda davlat siyosati izchil va oqilona, dadil va qat'iyatli bo'lmog'i lozim.

Mamlakat rahbariyati milliy masalani qonun yo'li bilan hal qilishga urindi, millatlararo mojarolarni tinch hal qilish chora-tadbirlarini ko'rди. Bu borada hukumat eng awalo Konstitutsiyaviy talablar asosida ish tutdi. Aholining barcha qallamlari va turli millat vakillari diqqatini bir nuqtaga qaratdi. Qonun oldida hammani teng qilib qo'ydi. Har bir fuqaro qalbida yagona zamin, yagona makon, yagona vatan uchun javobgarlik hissini kuchaytirdi.

Mamlakatimiz Mustaqillikka erishgach, millatlararo munosa-batlarda yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlar asta-sekinlik bilan bartaraf etila boshlandi. Ko'p millatli mamlakatda xalqlar tinch-totuvligini ta'minlash chora-tadbirlari ko'rildi.


O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», - deyiladi.

Mamlakatda milliy-madaniy markazlarni tashkil qilish asosida tub aholi bo'lmagan xalqlar milliy an'analari, mada-niyatlari va boshqa o'ziga xos jihatlarining rivojiga keng yo'l ochib berdi.

1989-yilda Madaniyat vazirligi qoshida mamlakat millatlararo Madaniyat Markazi tashkil etildi. Uning tarkibida 12 ta, jumladan Qozoq, Koreys, Arman, Ozarbayjon, Tojik madaniyat markazlari fa-oliyat ko'rsata boshladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"



Vaqt o'tgani sayin ularning soni orta bordi. Xususan, 1995-yilga kelib mamlakatda ularning soni 80 tadan oshdi.

Mustaqillik yillarida Baynalmilal madaniyat Markazi tomoni-dan amalga oshirilgan ishlarning yana bir yo'nalishi bu 1994-yili boshlangan birinchi «Xalq ijodiyoti» festivali bo'ldi. Bu festival O'zbekiston Mustaqilligining uch yilligi munosabati bilan tashkil etildi va uni har ikki yilda bir marta o'tkazishga qaror qilindi.

O'zbekistonda o'tkaziladigan «Turkiston - umumiy uyimiz» mavzuidagi kechalar, uchrashuvlar xalqlar o'rtasidagi do'stlik va ahillikni kuchaytirishda katta rol o'ynamoqda. Masalan, ana shunday shior ostida 1995-yil avgustda mamlakat Baynalmilal madaniyat Markazining respublika, Toshkent shahar xotin-qizlar qo'mitalari, «Tinchlik va barqarorlik» hamda shahar «Mahalla» xayriya jamg'armalari bilan hamkorlikda o'tkazgan do'stlik kechasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shu yil kuzda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyat arboblari Assambleyasining Toshkentda to'planishi ham bu borada qo'yilgan muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston «Xalq birligi» harakati va Baynalmilal madaniyat Markazi 1996-yil «O'zbekiston millatlararo hamjihatlik yo'lida» nomli kitobni nashr etdi. Unda milliy va millatlararo munosabat-larning ahamiyatni tubdan isloh qilish sharoitida tutgan o'rni va roli, milliy maBaniyatlar ravnaqi va Mustaqillik imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat vakillarining o'z ona tillarida o'qishi, ta'lim olishi uchun keng imko-niyatlar yaratildi. Ular kerakli miqdorda o'quv qurollari va darsliklar bilan ta'minlanadi.

Ayni paytda O'zbekistonda istiqomat qilayotgan 120 dan ortiq millat va elatlarning farzandlari mamlakatimiz o'quv yurtlarida bemaol ta'lim olmoqdalar. Ko'plab tillarda gazeta va juraallar chop etilmoqda. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar olib boril-moqda.

2008-yilga kelib yurtimizda turli millat va ellatlarni birlashtirgan 140 dan ziyod milliy-madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Ulardan 13 tasi respublika miqyosidagi tashkilot maqomiga ega. Rus, ukrain, koreys, turkman, qozoq, uyg'ur, nemis, polyak markazlarining hudu-diy bo'linmalari ham ishlab turibdi. Ushbu markazlar uchun millat va elatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash g'oyasi asosiy dasturilamaldir.

2007-yil 20-yanvar kuni Respublika baynalmilal madaniyat markazining 15 yilligi keng nishonlandi. Bu tadbirga alohida tayyorgarlik ko'rildi. 2006-yil davomida joylarda «O'zbekiston -umumiy uyimiz», «Kuchimiz - birlik va jipslikda», «Vatan yagonadir, Vatan bittadir» kabi festivallar tashkil etildi. Ularda esa hur O'zbekistonimiz jamoli, do'stlik, birodarlik, hamjihatlik kabi ezgu fazilatlar yanada ulug'landi.

Birinchi Prezident I. Karimovning 1994-yil 23-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan nutqi bir jihatdan O'zbekiston imkoniyatlarini, uning ma'naviy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot yo'llarini jahon miqyosiga olib chiqqan bo'lsa, ikkinchi tomondan jahon siyosati yo'nalishlariga, ijtimoiy siyosiy jarayonlar borishiga uning o'ziga xos yondashuvi, o'ziga xos baholash usuli va yo'naltirish uslubi mavjudligini ochiq-oydin ko'rsatdi.


Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, jamiyatda fuqarolar totuvligini mustahkamlash, barcha fuqarolarga millati va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquq va imkoniyatlar yaratish, yosh avlodni vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O'zbekistonda davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan.

Bugungi kunda respublikamizda faol "xalq diplomatiyasi" asosida chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam va o'zaro foydali munosabatlarni yo'lga qo'yish, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni va madaniy-ma'rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali o'z faoliyatini O'zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va etnik diasporalarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari, milliy



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

anʼanalari va urf-odatlarini saqlash hamda har tomonlama rivojlantirish tamoyillariga asosan olib borayotgan Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 ta milliy madaniy markazlar, Oʻzbekiston xorijiy mamlakatlar bilan doʻstlik va madaniy-maʼrifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 ta doʻstlik jamiyatlari muvafaqqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda.



Jamiyatda bagʻrikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini taʼminlash, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan doʻstona, teng huquqli va oʻzaro manfaatli munosabatlarni mustahkamlash Oʻzbekiston davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biridir.

Bular Konstitutsiyamizda mustahkamlangan fuqarolarning irqi, millati, tili, eʼtiqodi, shaxsiy va ijtimoiy kelib chiqishidan qatʼi nazar, qonun oldida tengligi tamoyillari hamda turli millat va elatlar vakillarining tili, urf-odatlari va anʼanalarini hurmat qilish, ularni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga asoslanadi.

Jamiyatda doʻstlik va ahillik, tinchlik va barqarorlik muhitini mustahkamlash ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, gumanitar va maʼnaviy sohalarda islohotlarni izchil amalga oshirish, xalqaro maydonda mamlakatimiz nufuzini yanada oshirishning muhim omili va zarur sharti hisoblanadi.

Bugun Oʻzbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila boʻlib yashamoqda. Ular barcha soha va tarmoqlarda fidokorona mehnat qilib, rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat qurishga va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga katta hissa qoʻshmoqdalar. Mustaqillik yillarida milliy madaniy markazlarning 120 dan ortiq faoli davlat mukofotlariga sazovor boʻldi, orden va medallar bilan taqdirlandi, jumladan, 14 nafariga «Oʻzbekiston Qahramoni» yuksak unvoni berildi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Respublika baynalmilal madaniyat markazi, 138 milliy madaniy markaz, O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi, shuningdek, 34 do'stlik jamiyati faoliyati O'zbekistondagi barcha millatlar va elatlarning tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini, an'ana hamda urf-odatlarini asrash va har tomonlama rivojlantirish, millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish, jamiyat va davlatni barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Ular «xalq diplomatiyasi» mexanizmidan faol foydalangan holda tinch va farovon hayotni asrash, xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlar va madaniy-ma'rifiy aloqalarni rivojlantirish, chet eldagi hamyurtlar bilan yaqin va o'zaro manfaatli munosabatlarni yo'lga qo'yishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim muassasalarida o'qish 7 tilda olib borilmoqda. Tele-radio ko'rsatuv va eshittirishlar 12 tilda efirga uzatilmoqda, gazeta va jurnallar 10 dan ortiq tilda chop etilmoqda.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va amalga oshirilishi, biz yashayotgan bugungi davrning o'zi davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, mamlakat atrofida xavfsizlik, barqarorlik va yaqin qo'shnichilik muhitini yaratishga qaratilgan puxta o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy siyosatni yuritish, shuningdek, aholi, ayniqsa, yoshlar ongida insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o'rtasida o'zaro hamjihatlikni yanada mustahkamlash, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash, fuqarolar ongida katta, ko'p millatli yagona oilaga mansublik tuyg'usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan.

Xususan, Respublika baynalmilal madaniyat markazi va O'zbekiston xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik va madaniy-ma'rifiy aloqalar jamiyatlari kengashi negizida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur Qo'mita zimmasiga jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar siyosatni, mamlakat hayotining barcha sohalarida



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlarni keng targ'ib qilish, xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, chet eldagi hamyurtlarimiz diasporasi bilan do'stlikni mustahkamlashga doir davlat siyosatini izchil amalga oshirish vazifasi yuklanadi.

Qo'mita millatlararo totuvlik, do'stlik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish, millatlararo munosabatlar madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, muvofiqlashtirish va rag'batlantirishga doir chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shuningdek, milliy madaniy markazlarga amaliy va metodik yordam ko'rsatadi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydi, millati, irqi va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, fuqarolar ongida ko'p millatli yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, «O'zbekiston – umumiy uyimiz» tamoyilini amalga oshirish choralari ko'radi.

Yoshlarni bag'rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, tarix, madaniyat, milliy ana'ana va urf-odatlarni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratiladi. Bu millatchilik va ekstremizm aqidalariga qarshi mafkuraviy immunitetga ega, mustaqillik g'oyalariga sodiq, O'zbekiston milliy manfaatlarini himoya qiladigan va ilgari suradigan ma'naviy barkamol avlodni shakllantirish imkonini beradi.

Qo'mitaga davlat organlarida milliy madaniy markazlar va do'stlik jamiyatlarining manfaatlarini himoya qilish, ular faoliyatini muvofiqlashtirish, mamlakatimizda yashayotgan turli millat va elat vakillarining o'ziga xos milliy an'analari, urf-odatlari va marosimlarini asrash va rivojlantirishga ko'maklashish vazifasi yuklangan.

Farmonda xorijiy mamlakatlar bilan do'stona munosabatlarni, chet eldagi hamyurtlarimiz va turdosh tashkilotlar bilan aloqalarni yanada mustahkamlash vazifalari belgilangan. Qo'mita mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan xorijiy mamlakatlarning tashkilotlari va diplomatik vakolatxonalari, xorijiy davlatlarda faoliyat ko'rsatayotgan turdosh tashkilotlar bilan samimiy va o'zaro hurmatga asoslangan aloqalar o'rnatish hamda izchil rivojlantirishga qaratilgan ishlarni tizimli amalga oshiradi.

Bu boradagi ishlar xalqaro hamjamiyatda respublikaning nufuzi va maqomini yanada yuksaltirish, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini qurish borasida erishilgan yutuqlarni keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan. Bu borada o'zbek xalqining boy tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlari va an'analari, shu zaminda tug'ilib o'sgan buyuk olim va mutafakkirlar merosi, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini keng namoyish etish bo'yicha tadbirlar o'tkaziladi.



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Qo'mita o'zbek xalqining mamlakatimiz tashqarisidagi tarixiy va madaniy meros obyektlarini asrab-avaylashni ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat tashkilotlar bilan faol hamkorlik qilish masalasiga ham alohida e'tibor qaratadi.

Xorijiy mamlakatlar bilan millatlararo munosabatlar va do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish va uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish va olib borishda bevosita ishtirok etishga ko'maklashish Qo'mitaning ustuvor vazifalari sifatida belgilangan.

Farmonga muvofiq hududlarda millatlararo munosabatlarni rivojlantirish va xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni muvofiqlashtirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining jamoat va diniy tashkilotlar bilan aloqalar bo'yicha o'rinbosarlari zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 15.11.2019 yildagi PF-5876-son qaroriga asosan so'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri – jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash, do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalash, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma'rifiy aloqalarni kengaytirishga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat'i nazar O'zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi o'zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an'alariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e'lon qiladi va kafolatlaydi.

Ushbu maqsadlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, u o'z faoliyatini yuritmoqda hamda jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosatini izchil amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yashab kelayotgan 130 dan ziyod millat va elatlarning vakillari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari taqdim etgan teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida va ijtimoiy sohada, ilm-fan va madaniyat sohalarida samarali mehnat qilib, Vatanimizning gullab-yashnashiga va uning mustaqilligini



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

mustahkamlashga, respublikaning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va imijini oshirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar.

Amalga oshirilayotgan ustuvor yo'nalishlar sur'atini, keng ko'lamli demokratik islohotlarni, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy jihatdan erkinlashtirish va jamiyat hayotining boshqa jabhalarida erishilgan salmoqli muvaffaqiyatlar tahlili O'zbekiston xalqi yagona g'oya – O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha oliyjanob maqsadlar va g'oyat muhim vazifalarga erishishdan iborat yagona maqsad atrofida birlashganligini ta'kidlash uchun barcha asoslarni beradi.

Shu bilan birga, xalqaro va mintaqaviy munosabatlarda davom etayotgan globalashuv va transformatsiya, dunyoda iqtisodiy, siyosiy, milliy, diniy va boshqa ziddiyatlar kuchayib, axborot va kibermakonlarida qarama-qarshi kurash ortib borayotgan bir sharoitda millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida o'z yechimini taqozo etayotgan bir qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda, quyidagilar shular jumlasidan:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorlik darajasini yanada oshirish;

jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojaroli vaziyatlar va ixtiloflarning barvaqt oldini olish va ularni profilaktika qilish bo'yicha faoliyatni tashkil etish asosi sifatida joylarda millatlararo munosabatlar holatini monitoring qilish tizimi va mexanizmlarini yo'lga qo'yish;

millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash, O'zbekiston xalqining tarixi va an'analarini o'rganish bo'yicha ta'lim, axborot va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat organlari mutaxassislarini, shuningdek, boshqa tashkilotlar xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasidagi ishlarni takomillashtirish.

Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish va yanada takomillashtirish maqsadida, shuningdek, 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

1. Quyidagilar millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish;

O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son Farmoni millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasiga ko'ra:

1. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining maqsadlari, prinsiplari va asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi nuqtai nazarlar yagona tizimidan iboratdir.

2. Ushbu Konsepsiyada quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

millatlararo munosabatlarni uyg'unlashtirish – millatlar va elatlarning vakillari o'rtasida konstruktiv va o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni shakllantirish;

Oldingi tahrirga qarang.

millatlararo munosabatlar sohasidagi davlat siyosati – jamiyatda millatlararo munosabatlarni takomillashtirish va tartibga solish sohasida davlatning tizimli faoliyatidan iborat bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini, ularning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar qonun oldida tengligini ta'minlashga qaratilgan; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-noyabrdagi PF-188-sonli Farmoni-qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.11.2023-y., 06/23/188/0835-son qaroriga ko'ra: millatlararo bag'rikenglik – fuqarolik jamiyatining ijtimoiy normasi bo'lib, boshqa millat va elatlar vakillarining umuminsoniy qadriyatlarga zid bo'lmagan nuqtai nazarlariga, dinlari, urf-odatlariga, an'analari va madaniyatiga nisbatan murosai madorada namoyon bo'ladi;

millatlararo munosabatlar – mamlakat hududida istiqomat qiladigan millatlar va elatlar o'rtasidagi, jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan munosabatlardir.

3. Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga, shuningdek, ko'p millatli O'zbekiston xalqining tarixiy tajribasi va an'analariga asoslanadi.

4. Konsepsiya inson va fuqaroning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga, O'zbekistonning birligi va yaxlitligini mustahkamlashga, uning hududida yashovchi millat va elatlarning etnik-madaniy o'ziga xosligini saqlashga, jamiyatda millatlararo bag'rikenglik, totuvlik va tinchlikni saqlab turishga yo'naltirilgan.

2-bob. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy maqsadlari va prinsiplari

5. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Oldingi tahrirga qarang.

jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning teng huquqlari va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

6. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

fuqarolarning teng huquqliligi;

-ijtimoiy adolat;

-qonun ustuvorligi;

-millat va elatlarning madaniy, til va diniy qadriyatlari, an'ana va urf-odatlarini o'zaro hurmat qilish;

-O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining, shu jumladan chet ellarda yashovchi fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish;

-O'zbekiston Respublikasi davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligi.

Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari:

7. Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish va millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

jamiyatda ko'p millatli katta oila his-tuyg'usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida do'stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta'minlash, ularning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik;

millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo'llab-quvvatlash va xorijdagi o'zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O'zbekistonning jahon maydonidagi obro'-e'tibori va imijini oshirish;



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

O'zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarini, ilg'or xorijiy tajribani e'tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Xulosa o'rnida shuni aytishjoizki, Bugungi kunda xalqaro terrorizm, radikalizm, mutaassiblik, ekstremizm kabi illatlarning chegara bilmasligi, bu jahon jamoatchiligida jiddiy tashvish va xavotir uyg'otayotgani ajablanarli emas. Mazkur illatlarga qarshi kurashda millatlararo totuvlik va hamkorlik yetakchi o'rinni egallaydi.

Yurtimizning bu borada olib borayotgan sa'y-harakatlari dunyo miqyosida o'zga mamlakatlarga namuna bo'layotganligi alohida e'tirof etilmoqda. Bu haqda fikr yuritilganda 2018 yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" nomli maxsus rezolyusiya qabul qilinganligini alohida eslab o'tish o'rinlidir. Mazkur rezolyusiyaning qabul qilinishi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil sentyabr oyida Nyu-York shahrida bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida ilgari surgan tashabbusning amaliy ifodasi sifatida aytib o'tish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "O'zbekiston millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik sohasida o'z an'analariga doimo sodiq bo'lib, bu yo'ldan hech qachon og'ishmasdan ilgari boradi. Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu - bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir", -deya bejiz ta'kidlanmagan.

Xalqimiz mentaliteti va ma'naviyatiga xos bo'lgan millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlanishi avvalo, jamiyatimizda ezgu g'oyalar va insoniy fazilatlarni kamol toptirish, yurtimizda tinchlik va barqarorlikni hukm surishining asosiy kafolati sanaladi. Va bundan keyin ham millatlararo totuvlik va hamjihatlik yurtimizda tinchlik, barqarorlikni saqlashning samarali omili bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov-"Yuksakma'naviyat-yengilmas kuch"-Toshkent-2008y;
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent: "O'zbekiston", 2016;
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T., 2014;
4. <https://lex.uz/ru>;
5. <https://iiv.uz/news>;